



MAHALLIYLASHTIRISH ORQALI SANOAT TARMOQLARIDA QO‘SHILGAN QIYMATNI OSHIRISH VA EKSPORT SALOHIYATINI MUSTAHKAMLASH

Haqberdiyev Elbek

I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti

Toshkent shahridagi filiali

“Energetikani barqaror rivojlantirishning iqtisodiyoti va loyihalari”

yo‘nalishi 4-kurs talabasi

e-mail: elbekhakberdiev34@gmail.com

Egamberdiyev Shavkatbek

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

e-mail: shavkatbekegamberdiyev79@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida mahalliy lashtirish siyosatining iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Mahalliy xomashyo va ehtiyot qismlardan foydalanish orqali korxonalar qo‘shilgan qiymatni oshirish imkoniyatlariga ega bo‘lib, natijada eksport salohiyati sezilarli darajada mustahkamlanadi. Maqolada so‘nggi Prezident qarorlari va hududiy sanoat dasturlari asosida mahalliy lashtirish jarayonining samaradorligi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada mahalliy lashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish va milliy mahsulotlarni eksport bozorlarida ilgari surish mexanizmlari ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mahalliy lashtirish, qo‘shilgan qiymat, sanoat tarmoqlari, eksport salohiyati, iqtisodiy samaradorlik

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti murakkab transformatsiya jarayonidan o‘tmoqda. Mamlakat strategik ustuvor yo‘nalish sifatida sanoat ishlab



chiqarishni chuqur qayta ishlash, mahalliyashtirish va eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni belgilab oldi. Bu yo'nalishlar nafaqat milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, balki tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar bilan ishtirok etishga xizmat qiladi. Xususan, Yevroosiyo Taraqqiyot Bankining tahlillariga ko'ra, yangi sanoat strategiyasi O'zbekiston uchun yiliga 15 milliard AQSh dollaridan ortiq iqtisodiy ta'sir keltirishi mumkin, bu esa mahsulot eksporti, import o'rnini bosish va ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali amalga oshadi [1]. Eksport imkoniyatlari yiliga taxminan 3,86 milliard dollarni tashkil etishi mumkin, bu ko'rsatkich mamlakatning qayta ishlash sanoati salohiyatining yuqoriligini ko'rsatadi.

Mahalliyashtirish siyosati - bu milliy sanoat zanjirlarini chuqur rivojlantirish, xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va shu orqali iqtisodiyotda qo'shilgan qiymatni oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuasidir. Bu jarayon ichki resurslardan samarali foydalanish, importga bo'lgan qaramlikni kamaytirish va ichki bozorda ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Masalan, O'zbekistonning kimyo sanoatida mahalliyashtirish orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlar nafaqat ichki talabni qondirmoqda, balki eksport salohiyatini ham oshirishga xizmat qilmoqda. "O'zkiyosanoat" AJ ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning birinchi yarmida amalga oshirilgan mahalliyashtirish dasturi doirasida 29 turdagi mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy qiymati 2,3 trillion so'mga yetdi [2]. Bu ko'rsatkich rejaga nisbatan 141,4%ga teng bo'lib, korxonaning nafaqat ichki bozorni qondirishi, balki tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulot yaratishga qodirligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Prezident administratsiyasida o'tkazilgan muhokamalarda ham mahalliyashtirish masalalari davlat darajasida ustuvor yo'nalishga aylangan. Muhokamalar natijasida, xomashyolarning chuqur qayta ishlanishi natijasida mahsulotlarning qo'shilgan qiymati besh barobar oshishi mumkinligi ta'kidlandi, va bu yo'nalishda korxonalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha topshiriqlar berildi. Shu



maqsadda, Mahalliyashtirish dasturlarini kuchaytirish orqali korxonalar eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishini kengaytirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston eksport strukturasida ham yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat mahsulotlarining ulushi sekin-asta o'sib bormoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat eksportining 34,9% qismini sanoat mahsulotlari tashkil etadi, shundan 5,3% yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlardir, jumladan elektr uskunalari, farmatsevtika mahsulotlari va mashinasozlik tarmoqlaridan. Bu raqamlar mamlakatning sanoat mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali eksport salohiyatini yanada oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Mahalliyashtirish jarayoni faqatgina ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan cheklanmaydi. U qo'shilgan qiymatni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlash, shuningdek, milliy mahsulotlarni global bozor talablariga moslashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Misol uchun, to'qimachilik sanoatida ham eksportning yuqori qo'shilgan qiymatli segmentini oshirish maqsadida standartlar va innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda, bu esa mahsulotlarni xalqaro bozorlarga muvaffaqiyatli chiqarishga yordam bermoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning iqtisodiy siyosati hozirgi kunda mahalliyashtirish va eksport salohiyatini mustahkamlashga yo'naltirilgan kompleks yondashuvga asoslanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Mahalliyashtirish orqali sanoat tarmoqlarida qo'shilgan qiymatni oshirish va eksport salohiyatini mustahkamlash masalalari so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinmoqda. Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichida sanoat mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu jihatdan, mahalliyashtirish jarayonlarini ilmiy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.



Mahalliy olimlardan A.A.Yadgarov, A.A.Kasimov, O.Abduraximov, I.T.Abdukarimov va boshqalarning sanoat iqtisodiyoti hamda tarkibiy o'zgarishlarga bag'ishlangan ilmiy ishlarida mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [3,4]. Xususan, A.A.Yadgarov, A.A.Kasimovlar tahriri ostida chop etilgan "Sanoat iqtisodiyoti va strategiyasi" nomli o'quv qo'llanmasida sanoatni modernizatsiya qilish va mahalliyashtirish siyosatining eksport salohiyatiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan [5]. Shuningdek, so'nggi yillarda nashr etilgan iqtisodiy tadqiqotlarda mahalliyashtirishning sanoat tarmoqlarida samaradorlikni oshirishdagi o'rni statistik va empirik ma'lumotlar asosida yoritilgan.

Mazkur yo'nalishdagi ilmiy qarashlar O'zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017–2019-yillarda tayyor mahsulot turlari, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning istiqbolli loyihalarini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2698-son qarori mahalliyashtirish siyosatining institutsional asoslarini belgilab berdi [6]. Ushbu qaror sanoat korxonalarida importga qaramlikni kamaytirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirishga qaratilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-yilda O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4949-son qarori eksportga yo'naltirilgan sanoat mahsulotlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini mustahkamladi [7]. Ushbu hujjatda mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksportini kengaytirish, eksportchilarga moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatish masalalari belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahsulotlarni eksport qilish tartib-taomillarini takomillashtirish va qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-47-son Farmoni sanoat tarmoqlarida qo'shilgan qiymatni oshirishni davlat siyosati darajasiga ko'tardi [8]. Ushbu farmon eksport jarayonlarini



soddalashtirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada mahalliyashtirish jarayonlarining sanoat tarmoqlarida qo'shilgan qiymatni oshirish hamda eksport salohiyatini mustahkamlashga ta'sirini ilmiy jihatdan asoslash maqsadida kompleks tadqiqot metodologiyasidan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy yondashuvlarning o'zaro uyg'unligiga asoslanib, iqtisodiy jarayonlarni tizimli tahlil qilishga yo'naltirilgan. Tadqiqotning nazariy asosini sanoat iqtisodiyoti, tarkibiy o'zgarishlar, qo'shilgan qiymat zanjiri va eksportga yo'naltirilgan rivojlanish konsepsiyalariga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Ushbu doirada ilmiy abstraksiyalash, umumlashtirish va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Xususan, mahalliyashtirishning iqtisodiy mazmuni, uning sanoat tarmoqlaridagi o'rni va ahamiyati mavjud nazariy qarashlar asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida mantiqiy tahlil va tizimli yondashuv metodlari qo'llanildi. Bu metodlar orqali sanoat tarmoqlarida mahalliyashtirish darajasi, ishlab chiqarish samaradorligi va eksport hajmlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlashtirildi. Shuningdek, sabab-oqibat tahlili yordamida mahalliyashtirish siyosatining qo'shilgan qiymatga ta'sir etuvchi asosiy omillari belgilandi. Empirik tadqiqotlar doirasida statistik tahlil metodidan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda ochiq rasmiy manbalarda e'lon qilingan ma'lumotlar asosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, eksport ko'rsatkichlari va mahalliyashtirish darajasi tahlil qilindi. Dinamik va strukturaviy tahlil usullari yordamida so'nggi yillarda sanoat tarmoqlarida yuz berayotgan o'zgarishlar baholandi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy tahlil metodi orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mahalliyashtirish va eksportni rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlarining mazmuni o'rganildi.

Tahlil va natijalar.



O‘zbekiston Respublikasida 2019–2025 yillar davomida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining barqaror va izchil o‘shish tendensiyasiga ega ekanligini 1-jadval ma’lumotlari ko‘rsatadi (1-jadval). Xususan, 2019-yilda 429 trillion so‘mni tashkil etgan sanoat mahsulotlari hajmi 2023-yilga kelib 889 trillion so‘mdan oshgan, bu esa sanoat ishlab chiqarish hajmining qisqa davr ichida deyarli ikki baravar oshganidan dalolat beradi. Ushbu holat mamlakatda amalga oshirilayotgan sanoatni modernizatsiya qilish, mahalliyashtirish jarayonlarini kengaytirish va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosat samaradorligini tasdiqlaydi. 2020-yilda pandemiya sharoitida o‘shish sur‘atlarining sekinlashganiga qaramasdan, keyingi yillarda sanoat tarmoqlarida tiklanish va tezlashgan rivojlanish kuzatilgan. Ayniqsa, 2021–2023 yillarda sanoat mahsulotlari hajmining yuqori sur‘atlarda o‘shishi mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlashga asoslangan ishlab chiqarishning kengayishi bilan bog‘liq. 2025-yilda ham sanoat mahsulotlari hajmi o‘shishda davom etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,7 foizga oshgani sanoatning barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, mazkur jadval sanoat tarmoqlarida mahalliyashtirish orqali qo‘shilgan qiymatni oshirish va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash uchun mustahkam asos shakllanganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘atlari (2019–2025)

1-jadval

Yil	Sanoat mahsulotlari hajmi, trln so‘m	O‘shish sur‘ati, %	Oldingi yilga nisbatan
2019	429,0	106,6	2018-yilga nisbatan
2020	451,6	100,7	2019-yilga nisbatan
2021	610,9	109,0	2020-yilga nisbatan
2022	734,6	105,5	2021-yilga nisbatan
2023	889,4	106,0	2022-yilga nisbatan
2024	1 020,0	106,5	2023-yilga nisbatan



2025	865,8 (10 oy)	106,7	2024-yilning davriga	mos
------	---------------	-------	-------------------------	-----

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari.

2-jadvalda keltirilgan ishlab chiqaradigan sanoat indeksi ko‘rsatkichlari O‘zbekiston sanoat tarmoqlarining 2019–2025 yillar davomida yuqori faollik va barqaror o‘shish bosqichida ekanligini yaqqol namoyon etadi (2-jadval). Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat indeksi barcha tahlil qilingan yillarda 100 foizdan yuqori bo‘lib, bu real ishlab chiqarish hajmining yil sayin ortib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, 2021-yilda indeksning 112,1 foizga yetishi sanoat rivojida muhim burilish nuqtasi bo‘lganini ko‘rsatadi. Mazkur o‘shish mahalliyashtirish siyosati doirasida yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushining ortishi hamda sanoat korxonalarida texnologik yangilanishlar amalga oshirilgani bilan izohlanadi. 2022–2024 yillarda indeksning 106–110 foiz oralig‘ida saqlanib qolishi sanoat tarmoqlarida barqarorlik va izchil rivojlanish mavjudligini anglatadi. 2025-yilda ham ishlab chiqaradigan sanoat indeksi yuqori darajada saqlanib, o‘shish tendensiyasining davom etayotgani qayd etilgan. Umumiy qilib aytganda,

Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari indeksining o‘shishi (2019–2025)

2-jadval

Yil	Ishlab chiqaradigan sanoat indeksi (%)
2019	107,9
2020	105,3
2021	112,1
2022	110,3
2023	108,6
2024	106,5
2025	106,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, sanoat statistikasi.



2-jadval ma'lumotlari sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligining oshishi va mahalliyashtirish orqali qo'shilgan qiymat yaratilishining kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini mustahkamlash uchun muhim iqtisodiy omil hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Ilmiy izlanish natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida sanoat tarmoqlarida mahalliyashtirish siyosati so'nggi yillarda iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biriga aylangan. Rasmiy statistika ma'lumotlari tahlili sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va ishlab chiqaradigan sanoat indeksining barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, 2021-yildan keyingi davrda sanoat mahsulotlari hajmining tez sur'atlarda oshishi mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hamda qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushining ortishi bilan izohlanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalliyashtirish jarayoni sanoat tarmoqlarida nafaqat import o'rnini bosish vazifasini bajaribgina qolmay, balki eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali tashqi savdo balansini yaxshilashga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqaradigan sanoat indeksining yuqori darajada saqlanib qolishi sanoat tarmoqlarida samaradorlikning oshayotganidan dalolat beradi. Biroq, mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun mahalliyashtirish siyosatini yanada chuqurlashtirish va uni yangi mexanizmlar bilan boyitish zarurati saqlanib qolmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

✓ sanoat tarmoqlarida mahalliyashtirish darajasini baholovchi integral indeks joriy etish maqsadga muvofiq. Ushbu indeks orqali korxonalarda mahalliy xomashyo ulushi, qo'shilgan qiymat darajasi va eksport yo'nalganligi yagona tizim asosida baholanadi. Bu esa davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari yanada manzilli qilish imkonini beradi.



✓ qo'shilgan qiymat zanjirini hududlar kesimida rivojlantirish modeli ishlab chiqilishi lozim. Ya'ni, har bir hududning sanoat ixtisoslashuviga mos holda mahalliyashtirish yo'nalishlari belgilanib, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot eksportigacha bo'lgan zanjir hududiy klasterlar asosida tashkil etilishi zarur.

✓ sanoat korxonalari uchun mahalliyashtirishga asoslangan eksport reyting tizimini joriy etish taklif etiladi. Ushbu reyting korxonalarining mahalliy xomashyo asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlari eksportidagi faolligini baholashga xizmat qiladi va yuqori reytingga ega korxonalarni rag'batlantirish mexanizmlarini shakllantiradi.

✓ mahalliyashtirish jarayonida ilmiy-tadqiqot va sanoat integratsiyasini kuchaytirish zarur. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar bilan sanoat korxonalari o'rtasida qo'shilgan qiymatni oshirishga qaratilgan amaliy loyihalarni moliyalashtirish alohida mexanizm sifatida yo'lga qo'yilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, mahalliyashtirish orqali sanoat tarmoqlarida qo'shilgan qiymatni oshirish va eksport salohiyatini mustahkamlash O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishida strategik ahamiyatga ega bo'lib, taklif etilgan chora-tadbirlar ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yevroosiyo Taraqqiyot Banki (EDB). O'zbekiston sanoati va eksport salohiyati bo'yicha tahlillar. 2023-y. www.eabr.org
2. "O'zkimyosanoat" AJ. Yillik sanoat faoliyati va mahalliyashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar. www.uzkimyosanat.uz
3. A.A. Yadgarov, A.A.Kasimov. Sanoat iqtisodiyoti va strategiyasi. (O'quv qo'llanma). – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022-332 b.
4. Abduraximov O. Sanoat iqtisodiyoti T.: —Sano Standart, 2014– 304b.
5. Abdukarimov I.T. va boshqalar Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2013 – 256 b.



6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.12.2016 yildagi PQ-2698-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.01.2021 yildagi PQ-4949-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 14.03.2025 yildagi PF-47-son.
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
www.stat.uz
10. Mavludaxon T., Shavkatbek E. O ‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) //Tadqiqotlar. – 2025. – T. 61. – №. 6. – C. 100-105.
11. Turginova M. THE CONCEPT, CONTENT, AND NECESSITY OF" GREEN ECONOMY" //Journal of Applied Science and Social Science. – 2025. – T. 1. – №. 3. – C. 162-169.
12. Turginova M. THE CONCEPT OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP AND ITS UNIQUE UNDERSTANDING OF DEVELOPMENT //Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. – 2025. – T. 1. – №. 2. – C. 275-281.
13. Otabek O., Shavkatbek E. Raw Materials in Industry and Its Properties //Eur. J. Artif. Intell. Digit. Econ. – 2024. – T. 1. – C. 51-54.
14. Shavkatbek E. et al. YENGIL SANOAT TARMOQLARIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – T. 37. – №. 4. – C. 200-208.
15. Xushnudxanovna S. O., Shavkatbek E. MAHALLIYLASHTIRISH VA IMPORTNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH //Modern education and development. – 2025. – T. 40. – №. 4. – C. 90-96.



16. Shuhratbek o'g'li E. J., Shavkatbek E. YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA XOM ASHYO IMPORTINI MAHALLIYLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI //Modern education and development. – 2025. – T. 40. – №. 4. – C. 97-105.